O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO'JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DMNING ANDIJON
VILOYATI BOSHQARMASI

Andijon viloyati 170100, Andijon Shahri, A.Navoiy shox ko'chasi 30-uy., Tel/Faks: 71-203-11-49, E-mail: ekspert-2312@mail.ru., new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy
Boshqarma boshlig`i: Ashurov Behzodbek Orifjon O‘g‘li
Sana: 29-12-2025 yil

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

270945 - SONLI

Obyekt nomi: "Mavjud turar-joy va noturar bino-inshootlarini buzib o‘rniga 12 qavatli turar-joy" bino va inshootlari qurilishi	
Buyurtmachi:	LEYLA BUILDING MCHJ
Bosh loyihachi:	"RICHMIR" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	Xarid tartib-taomillari asosida aniqlanadi.
Qurilish turi:	Yangi qurilish
Murojaat raqami:	103470

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. Xalq deputatlari Andijon shaxar kengashining 17.03.2021-yildagi №106/17-6-sonli qarori.

1.2. Xalq deputatlari Andijon shaxar kengashining 15.02.2025-yildagi №02/14-sonli xati.

1.3. Andijon viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi Bosh boshqarmasi tomonidan 18.02.2025-yilda berilgan va qayta rasmiylashtirilgan №1703-1703401-215183-sonli Arxitektura-rejalashtirish topshirig'i.

1.4. Buyurtmachi “LEYLA BUILDING” MChJ tomonidan 2025-yilda tasdiqlangan loyixalash topshirig'i.

1.5. Buyurtmachi “LEYLA BUILDING” MChJ hamda bosh loyiha tashkiloti o`rtasida 06.05.2025-yilda tuzilgan №1/25ashx-sonli loyiha-tadqiqot ishlari uchun shartnoma.

1.6. Andijon viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi Bosh boshqarmasi Arxitektura va shaxarsozlik kengashi ishchi organining 11.12.2025-yildagi №233832388-sonli xulosasi.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Loyixaning tarkibiy qismlarining ro'yxatiga muvofiq ishchi loyixa bosqichida to'liq loyixa xujjatlari.

2.2. Loyixa tarkibidagi umumiy tushuntirish yozuvi.

2.3. Muxandislik geologik qidiruv ishlariga “O`ZGASHKLITI” Andijon filiali tomonidan 2025-yilda bajarilgan xulosa.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

Bino						
Turi	**Nomi**	**Qavati**	**Qurilish maydoni**	**Umumiy maydoni**	**Xajmi**	**Xonadonlar soni**
Ko'p xonadonli turar joy binosi	KO`P QAVATLI TURAR-JOY 5-BLOK BINOSI	12	849.7	9133.41	33664.5	99
Ko'p xonadonli turar joy binosi	KO`P QAVATLI TURAR-JOY 6-BLOK BINOSI	12	623.12	6863.52	27666.53	77
Jami:			**1472.82**	**15996.93**	**61331.03**	**176**

3.1. Qurilish maydoni tafsilotlari:

Tashqi xavoning minus 16 C^0 li qurilish tumani

Qordan tushadigan yuk -50 kg/mI

Shamolning ta'sir kuchi -38 kg/mI

Yozgi xisobiy xavoning issiqlik xarorati +33 C^0.

Maydon seysmikligi 8-balli.

3.2. Bosh reja:

Bosh reja bo‘yicha texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlar:

1. Hududning umumiy maydoni – 18600,0 m^2.
2. Qurilish maydoni – 6370,0 m^2.
3. Yo‘llar, piyodalar yo’lakchasi va qoplamalar – 7650,0 m^2.
4. Ko‘kalamzorlashtirish maydoni – 4580,0 m^2.
5. Honadonlar soni - 165 ta.

Bino va qizil chiziqlarni joyiga bog‘lash:

Loyihalashtiriladigan obyekt yer uchastkasining tasdiqlangan chegarasidan chiqmasdan, loyiha ishlarini olib borilishi ta’minlansin. Yo‘lning qizil chizig‘i va belgisi 1:500 masshtabli chizmada ko‘rsatilgan. Qurilish maydonining burchaglarida qizil (loyihaviy) belgi aks etgan.

Obodonlashtirish:

Loyihaviy bosh reja bo‘yicha joylashtirilgan maishiy binolari atrofini obodonlashtirish kiradi. Bosh reja bo‘yicha binolar atrofida joylashtirilgan yo‘l va yo‘lkalar hamda avtoturargoxlarni joy-joyiga joylashtirib, atrof ko‘rinishini ishlash sharoitiga moslash kiradi.

Ko‘kalamzorlashtirish:

Loyiha hududni ko‘kalamzorlashtirish qurilishi ishlari amalga oshirilishda muhim vazifani egallaydi. Atrof-muhitga, qurilgan binolarga ko‘rk beradigan asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ko‘kalamzorlashtirish deganda asosan past bo‘yli manzarali daraxt va butalardan iborat bo‘lib, bundan tashqari turli-tuman chiroy beradigan gullar ekilgan gulzorlar kiradi. Ko‘kalamzorlar hududga ko‘rkamlik ko‘rinishi berishidan tashqari, u hududni havosini tozalashda muhim ahamiyatga ega. Asosan daraxt va gul ko‘chatlari sharoitga moslashgan, issiq iqlimga chidamli toifalaridan foydalanish talab qilinadi.

Sug‘orish tizimi:

Bosh rejada joylashtirilgan bino va yo‘lkalar bo‘ylab loyihalangan yig‘ma beton holatidagi suv qochirish ariqchalar tashkil qilish kiradi, yo‘l bo‘ylab joylashtirilgan beton ariqchalar yo‘lkalar

kesishish joyda d=0,25 metrlik polietilen quvurlardan, yo‘llar kesishish joyida d=0,325 metrlik metall quvurlardan yer ostidan o‘tkazish ko‘zda tutiladi. Ariqchalar turli yo‘nalishda kesishadigan qismida suvni me’yoriy yo‘naltiriladigan moslamalar joylashtirish mo‘ljallangan.
Andijon shaxar xududida ilova etilgan bosh reja asosida “Mavjud turar-joy va noturar bino-inshootlarini buzib o‘rniga 12 qavatli turar-joy (5-6-blok)” bino va inshootlari Andijon viloyati Andijon shaxar, Amir Umarxon, Ma’orif, Xakimzoda va Ergash Ashurov ko‘chalari kesishmasi xududida joylashgan. Qurilish maydoni uchun Xalq deputatlari Andijon shaxar kengashining 17.03.2021-yildagi №106/17-6-sonli qaroriga asosan yer uchastkasi ajratildi. Obyekt yer uchastkasi shimol tomondan ko`cha bilan, sharq tomondan ko`cha bilan, janub va g‘arb tomonlaridan ko`cha bilan chegaralanadi. Bosh rejaga asosan 1-bosqichdagi ko`p qavatli turar-joy binolari, loyihaviy ko`p qavatli turar-joy binolari (5-6-bloklar), 3-bosqichdagi loyihaviy ko`p qavatli turar-joy binolari, yong`inga qarshi jihozlar qutisi, besedka, bolalar o`yingohi, mavjud bino-inshootlar, avtoturargoh joylashgan.
Bosh reja rel`ef va mavjud kommunikatsiyalarni hisobga olgan xolda ishlab chiqilgan.

3.3. Me'moriy va konstruktiv yechimlari:

Bosh rejaga muvofiq “Turar-joy” binolari 2 dona (5-6-bloklar) 12 qavatli va yerto`lali, bino to’rt burchak trapetsiya shaklida bo`lib, 176 honadondan iborat.

*Loyihaviy “Ko`p qavatli turar-joy 5-blok” binosi* – 12 qavatli va yerto`lali, to`g`ri to`rtburchak trapetsiya shaklda bo'lib, rejadagi o'qlari bo'yicha o`lchamlari 45,13x19,2 metr. Bino yerto'la va birinchi qavati balandligi poldan shiftgacha 3,81m. Binoning 2 va yuqori qavat larini poldan shiftgacha bo`lgan balandligi 3,06 m.

Bino yerto'la qavatida magazin, xoll, 2 ta lift, yo’lak, zinapoya va texnik xonalardan iborat. Binoning birinchi qavatida yo`lak, magazin, o`tish yo`li, zina va binoga moslashtirilgan 2 ta lift loyihalangan. Binoning 2 va 12 qavatlarda kirish yo'lak, balkon, xoll va zinapoya, binoga moslashtirilgan 2 ta lift; har bir qavatda 1 ta 1-xonali xonadon, 5 ta 2-xonali, 2 ta 3-xonali xonadon va 1 ta 4-xonali xonadon loyihalashtirilgan. Binoda jami 99 dona honadon bo`lib, 1-xonali xonadonlar soni – 11 dona, 2-xonali xonadonlar soni - 55 dona, 3-xonali xonadonlar soni - 22 dona va 4-xonali xonadonlar soni - 11 donadan iborat.

*Loyihaviy “Ko`p qavatli turar-joy 6-blok” binosi* – 12 qavatli va yerto`lali, to`g`ri ko`p burchak trapetsiya shaklda bo'lib, rejadagi o'qlari bo'yicha o`lchamlari 35,37x19,2 metr. Bino yerto'la va birinchi qavati balandligi poldan shiftgacha 3,81m. Binoning 2 va yuqori qavatlarini poldan shiftgacha bo`lgan balandligi 3,06 m.

Bino yerto'la qavatida 2 ta lift, yo’lak, zinapoya va texnik xonalardan iborat. Binoning birinchi qavatida yo`lak, savdo do`konlari, zina va binoga moslashtirilgan 2 ta lift loyihalangan. Binoning 2 va 12 qavatlarda kirish yo'lak, balkon, xoll va zinapoya, binoga moslashtirilgan 2 ta lift; har bir qavatda 1 ta 1-xonali xonadon, 4 ta 2-xonali va 2 ta 3-xonali xonadon loyihalashtirilgan. Binoda jami 77 dona honadon bo`lib, 1-xonali xonadonlar soni – 11 dona, 2-xonali xonadonlar soni - 44 dona va 3-xonali xonadonlar soni - 22 donadan iborat.

Pardozlash ishlari:

- Bino romlari, vitrajlari va framugalari barchasi bir kamerali steklopaketdan iborat bo’lib, profillari PVX dan tayyorlanadi, tokchalari PVX doskadan tayyorlanishi re’jalashtirilgan. Yerto’la qismi barcha eshiklari, bino zinapoya qismiga kirish eshigi va xonadonlarga kirish eshiklari barchasi mineral tola orqali izolyatsiya qilingan temir eshiklardan tayyorlanadi. Xonadonlar ichki eshiklari MDF ashyosidan tayyorlanishi loyihada ko’zda tutilgan. Balkonlarga chiqish eshiklari bir kamerali steklopaketdan iborat bo’lib, profillari PVX dan tayyorlanadi.

- Yerto’la qismi va birinchi qavat ichki devorlarida sement-oxakli suvoq, gipsli quruq aralashmali shpaklevka va emulsiyaga asoslangan suvli bo’yoq ko’zda tutilgan. Xonadonlar ichki devorlarida va teshiklar ichi qirralarida sement-oxakli suvoq ishlari ko’zda tutilgan. Xojatxona ichki devorlarida va teshiklar qirralarida shiftgacha keramogranit, shift qismida esa plastik qoplash re’jalashtirilgan.
- Yerto’la qismi xonalari, birinchi qavat pollari, bino barcha zina katagi hamda lift yo’laklari aglomerat bilan qoplanadi. Xonadonlar xojatxona, balkonlar va bino yo’laklari pollarida keramogranit plitka qoplanishi ko’zda tutilgan. Yashash xonalarda pol yuzasi qatlamli sement-qum qorishmasi bilan tekislanadi.

Tashqi pardozlash ishlari:

- Bino poypesh qismi tashqi pardozlash ishlarida keramogranit qoplash ishlari re’jalashtirilgan. Tashqi devorlar bazaltga asoslangan issiqlik izolyatsiya plitasi bilan qoplangan hamda “Travertin” dekorativ suvog’i ishlari ko’zda tutilgan. Zina va panduslar yuzasi sirpanmaydigan yuzaga ega keramogranit bilan qoplangan. Karnizlar plyasterlar orqali qoplanishi ko’zda tutilgan.
- Bino tomlari – (мягкая кровля) bilan qoplanadi.
- Zinalar, panduslar va balkonlar tutqichlari – temirdan individual holatda tayyorlanadi.
- Bino atrofi bo’ylab kengligi 1000 mm bo’lgan otmostka loyihada ko’zda tutilgan.

Ishchi chizmalar amaldagi qoidalar va standartlarga muvofiq ishlab chiqilgan. Binoning konstruktiv yechimi QMQ 2.01.03-19 “Zilzilaviy hududlarda qurilish” 3.1 jadvali 1.2.2 b-bandi asosida loyihalangan.

Binoning konstruktiv tarkibiy yechimi: Poydevorlar - monolit temir-beton plitalardan. Ustunlar temir-betondan. Ustunlar kesimi yer tola va 3-qavatgacha 500x500mm, 4-qavatdan 12-qavatgacha 400x400mm, B30 sinfli betondan. To’sinlar - monolit temir-beton, o'lchami 500(h)x500, 500(h)x400 va 400(h)x400, beton sinfi B30. Tom yopma va orayopmalar - quyma temir-beton plitalardan t=180mm beton sinfi B30. Devorlari – temirbeton, gazoblok qalinligi 250, 200 va 120 mm, yuqori sifatli sement-qum qorishmali suvoq, yuqori sifatli shpaklevka, suv emulsiya bo’yoq. Zinapoya - monolit temir-beton. Tom tuzilmalari – ruberoid, 100mm qalinlikda keramzit, sement-qum aralashmasidan tekislovchi qatlam, bitumli praymer, 2 qatlam rulonli gidroizolyatsiya (мягкая кровля) bilan qoplangan. Tashqi devor atrofi to’shamasi (otmostka) - bino perimetri bo'ylab beton yo’lakcha rejalashtirilgan, kengligi 1000mm, qalinligi 100 mm

Shuning bilan birga, ishchi loyiha-smeta hujjatlarida muhandislik tarmoqlari, hududni obodonlashtirish va nogironligi bo`lgan shaxslar uchun maxsus ishlarni bajarish ko‘zda tutilgan.

Ishchi loyihada;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-sentabrdagi PF-220-son Farmoni talablari bo`yicha:

- Issiq suv ta’minoti issiqlik punktidan va bino-inshootlarda qayta tiklanuvchi energiyamanbalaridan foydalanish talablari ko‘zda tutilgan, binoning tom qismida o‘rnatilgan quyosh batareyasi kollektoridan qo‘shimcha issiq suv ta`minlanishi ko‘zda tutilgan.
- Energiya samaradorlikni ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlarni nazarda tutilgan va ob’ekt energiya resurslarini zamonaviy “aqlli” o‘lchash moslamalari bilan jihozlanishi bo‘yicha talablar ko‘zda tutilgan.

- Binoda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish ya`ni quyosh panellari o`rnatish ko‘zda tutilgan.
- Binoda issiqlikni saqlash uchun binoning tashqi fasad qismi mineral vata (bazalt) qoplash ko`zda tutilgan.
- Tom issiqlik qatlami – mineral plitadan qoplanadi.
- Poydevor izolyatsiyasi – penopleksdan issiqlik qatlami qoplanadi.
- Pol issiqlik qatlamiga penopolistirol qoplanadi.

Nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda keksalar uchun O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi PQ-266 sonli qarori talablari bo`yicha:

- nogironlar uchun to`xtash joyi avtoturargox tashkil qilindi va maxsus belgilar o`rnatildi;
- hududda ogohlantiruvchi va yo`naltiruvchi taktil qoplamalar qoplandi;
- binoga kirish qismida me`yoriy qiyalikka ega bo`lgan pandus tutqichlar bilan rejalashtirildi;
- yuqori qavatlarga ko’tarilish uchun liftlar re’jalashtirildi;
- eshik qirg`oqlari 100mm kenglikda bo`yoq bilan bo`yaladi;
- binoning birinchi qavati yo’laklariga taktil qoplamalar qoplandi.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

4.1. Obyektni muhandislik kommunikatsiyalari bilan ta'minlash Andijon viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi Bosh boshqarmasi tomonidan 18.02.2025-yilda berilgan va qayta rasmiylashtirilgan №1703-1703401-215183-sonli Arxitektura-rejalashtirish topshirig'iga muvofiq hal qilinadi:

- Elektr ta'minoti - “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Andijon hududiy filialining 04.06.2025-yildagi №0340153476-sonli texnik shartiga muvofiq;
- Suv ta'minoti - “Andijon suvta`minoti” AJ Andijon shahar filialining 07.10.2024-yildagi №384-sonli texnik shartiga muvofiq xal qilinadi.

Issiqlik tizimi va shamollatish tizimi:

5-6 bloklar binolarini isitish xar bir xonadonda joylashgan 2 konturli qozonlardan amalga oshiriladi. Isitish sistemasi ikki quvurli gorizontal qabul qilingan. Isitish uskunalari sifatida alyumin radiatorlar qabul qilingan. Shamollatish tabiiy va mexanik yo‘l bilan bajariladi. Toza havo xonalarga deraza, eshiklar orqali amalga oshiriladi.

Ichimlik suvi va oqova suvi tizimi:

5,6 bloklar binolariga xo‘jalik-ichimlik, oqava suv, issiq suv ta’minoti va yong‘inga qarshi suv tarmoqlari loyihalangan bo‘lib, tarmoqlar turli xil diametrdagi polipropilen, plastmassa quvurlardan tashkil topgan. Issiq suv ta’minoti manbai xonalardagi 2 konturli qozonlardan va quyoshli issiq suv kollektorlaridan amalga oshiriladi. Oqova suv tarmog‘i polietilen quvurlardan loyixalangan.

Elektr taminoti:

Ushbu elektr qismi SHNQ 2.04.17-2019, SHNQ 2.08.01-2019, SHNQ 2.01.05-2019 va PUE ga muvofiq loyihaning arxitektura-qurilish qismining vazifalari asosida amalga oshirildi. Elektr ta'minotining ishonchliligi nuqtai nazaridan turar-joy binolari II toifali iste'molchilarga tegishli. Binolarning elektr energiya iste'mol quvvatlari:

Blok-5 VRU:

Hisobiy quvvat - Ph-183.67 kW;

Hisobiy tok - Ih-306.11 A.

Blok-6 VRU:

Hisobiy quvvat - Ph-179.39 kW;

Hisobiy tok - Ih-298.98 A.

Kvartiralarning ta'minot liniyalari ko'targichlarining loyihaviy yuklari, shuningdek kirishdagi loyihaviy yuklar SHNQ 2.04.17-2019, 2-jadvalga muvofiq 5-bandning eslatmalarini hisobga olgan holda, har bir xonadonning solishtirma yukiga va kvartiralar soniga qarab belgilanadi.

Kirish-tarqatish qurilmasi sifatida VRU1-23-55UXL4 seriyasi qabul qilindi. Turar-joy binosida elektr energiyasini hisobga olish EX-518U tipidagi elektron hisoblagich bilan ta'minlanadi.

Bino tomida kuvvati 20kVt bulgan quyosh fotoelektr stansiyasi o‘rnatish ko‘zda tutilgan

Yong`in xavfsizligi tizimi:

Loyiha bilan 2 ta blokdan iborat 12 qavatli ko‘p kvartirali turar-joy binolari qurilishi rejalashtirilgan. Turar joy binolarining yerto‘la qavatida savdo va texnik xonalar, 1-qavatida savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish xonalari, 2-12 qavatlarida yashash kvartiralarini joylashtirish rejalashtirilgan. Yerto‘la qavatidan bevosita tashqariga chiqish uchun evakuatsiya yo‘llari va chuqurchalar bilan ta’minlangan derazalar mavjud. Tom qismi – metall konstruksiyalari yordamida profnastil yopilgan. Binolar tom qismiga chiqish umumiy ichki zinapoyalar orqali. Isitish tizimi – kvartiralarga o‘rnatilgan individual isitish qozonlari (chiqindi gazlarini chiqarib yuborish uchun fasad bo‘ylab yig‘ma tik dudburonlar) orqali.

Konstruksiyalarning chegaralangan holatlariga ko‘ra, binolarning olovbardoshlik darajasi – II, funksional yong‘in xavfi sinfi - 1.3, balandligi +37,9 metr (yer sathidan eng yuqori yashash qavati ochiladigan eshigining pastki chegarasigacha).

Yong‘in xavfsizligini ta’minlash maqsadida quyidagi tadbirlar ko‘zda tutilgan:

Turar-joy binolarining tashqi fasad qismlariga yonmaydigan materiallardan ishlov berish, har bir kvartiralardan ochiq turdagi balkonlar, balkonlarda avariya lyuklari, qavatlar yo‘laklaridan yong‘in vaqtida tutun tortish va lift shaxtalariga alohida kanal orqali tashqi havo berish tizimlari, gazda ishlaydigan jihozlar o‘rnatiladigan xonalar gaz quvurlarida gazanalizator va gazni o‘chiruvchi klapanlar, 5-blok binosi tarkibidan yong‘in-qutqaruv avtomobillarini majmua ichki qismiga o‘tishi uchun yo‘lak, turar joy binolari barcha qavatlarida juft kranlar bilan ta’minlangan ichki yong‘in o‘chirish suv tizimi, yerto‘la va birinchi qavatlarida avtomatik yong‘in o‘chirish tizimi, yerto‘la qavatida bosim ko‘taruvchi nasos qurilmalari, kranlar shkafida birlamchi yong‘in o‘chirish vositalari, nasoslarni masofadan boshqarish tugmalari, nasos xonasidan diametri 80 mm. bo‘lgan ikkita tashqariga chiqarilgan yong‘in-qutqaruv avtomashinalarini ulash uchun quruq quvurlar (yong‘in patrubkasi), yong‘in signalizatsiya va odamlarni yong‘indan xabardor va evakuatsiya qilishni (ovozli) boshqarish tizimlari, chiqish joylarida yong‘in signalizatsiyasining qo‘lda ishlovchi tashvishgohlari, yong‘in o‘chirish tashqi manbasi sifatida hududda yong‘in o‘chirish gidranti, evakuatsiya yo‘llarida yong‘inga bardoshli (o‘zini-o‘zi berkituvchi moslamalar bilan jihozlangan) eshiklar, binolar atrofida yong‘in-qutqaruv avtoekipajlari harakatlanishi uchun qattiq qoplamali yo‘llar, yer usti qavatlaridan evakuatsiya uchun N1 tipdagi zina kataklari.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Andijon viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi Bosh boshqarmasi Arxitektura va shaxarsozlik kengashi ishchi organining 11.12.2025-yildagi №233832388-sonli xulosasi.

5.2. Davlat ekologik ekspertizasi markazining Andijon viloyati filiali tomonidan 2025-yil 12-mart kuni berilgan №01-02/03-3413-sonli davlat ekologik ekspertiza xulosasi.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko‘ra qo‘shimcha qiymat solig‘i (QQS) bilan **53 038 002 898** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati

1 334 926 201 so'mga kamaytirilib, **51 703 076 697** so‘mni tashkil etadi. Xususan:
Qurilish-montaj ishlari: **44 102 539 157** so'm
Asbob-uskunalar: **2 060 922 179** so'm
QQS: **5 539 615 361** so'm
6.1. Loyixa-smeta hujjatlari ekspertizaga buyurtmachining e’tirozlarisiz taqdim qilindi.
6.2. Ishchi loyixaga asosan qurilish montaj ishlarining yakuniy xarajatlari buyurtmachi va pudradchi tomonidan qurilish tugagandan so'ng, xaqiqiy (ijro xujjatlari) nazorat natijalari asosida aniqlanadi.
6.3. Ekpertizaga oid ko‘rib chiqish jarayonida ishchi loyihaning bo'limlari yuzasidan berilgan e'tiroz va kamchilliklarni to'liq bartaraf etish lozim.
6.4. Ushbu ekspertiza xulosasida pudratchining boshqa harajatlari, obyektning hududda joylashgan o`rni va oraliq masofasi bo`yicha “Shaharsozlik hujjatlarini ekspertiza qilish Respublika markazi” DM Andijon viloyati hududiy boshqarmasi majburiyatni o‘z zimmasiga olmaydi. Vaholanki, Andijon viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi Bosh boshqarmasi Arxitektura va shaxarsozlik kengashi ishchi organining 11.12.2025-yildagi №233832388-sonli xulosasida obyektning hududda joylashgan o`rni va oraliq masofasi bo`yicha mutasaddi tashkilotlar bilan kelishilgan.
6.5. Ekspert mutahassislar tomonidan ko`rsatilgan quyidagi bandlar buyurtmachi va loyiha tashkiloti tomonidan to`liq bajarilmagan taqdirda ushbu ekspertiza xulosasi o`z kuchini yo`qotgan deb xisloblanadi:
- Buyurtmachi “LEYLA BUILDING” MChJ ning 2025-yil 26-dekabrdagi №2025/14-sonli kafolat xatiga asosan avtoturargoh masalasida hududga yaqin bo`lgan avtorurugohdan ijara shartnomasini rasmiylashtirish hamda ko`kalamzorlashtirish maydonlari bo`yicha kafolatlanganligini inobatga olish;
binoning isitish tizimini keying bosqichda amalga oshirilishi kafolatlanganligigni inobatga olish;
- Turar-joy binosida ishlab chiqilgan loyiha hujjatlarining yong‘in xavfsizligini ta’minlash qismi bo`yicha binolarning konstruktiv yong‘in xavfi sinfi – S0 dan kam bo‘lmasligi sharti bilan tavsiya etish;
- Buyurtmachi “LEYLA BUILDING” MChJ ning 2025-yil 26-dekabrdagi №2025/13-sonli kafolat xatiga asosan binoning isitish tizimini keying bosqichda amalga oshirilishi kafolatlanganligini inobatga olish;
6.6. Buyurtmachi loyixaviy xujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar, shu jumladan, O'zbekiston Nogironlar jamiyati Andijon viloyat bo'limi bilan kelishish lozim.
6.7. O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligining 2019-yil 19-avgustdagi 396-buyrug'i (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2019-yil 9-sentabrda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami 3180) bilan tasdiqlangan “Loyixa-tadqiqod ishlarining qiymatini aniqlash tartibi to'g'risidagi” Nizomning 4-bandiga asosan loyixa tashkiloti tomonidan qurilish ustidan mualliflik nazoratini o'tkazishda, loyixalarni ishlanma boshlanishidan amalga tadbiq etilishining oxirigacha olib boriladigan texnikaviy kuzatuvini amalga oshirishda ishtirok etadi.
6.8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 579-sonli qarori 1-ilova, III-bob, 29-bandiga asosan ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma'lumotlarning xaqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlariga buyurtmachi va loyiha tashkiloti javobgardir.

6.9. Nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda keksalar uchun qurilish obyektlari O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.07.2024-yildagi PQ-266 sonli qarori bilan bir vaqtda ShNQ 2.01.02-04, ShNQ 2.04.09-21, ShNQ 2.07.01-23, ShNQ 2.08.01-24, ShNQ 2.08.02-23, ShNQ 2.08.04-24, ShNQ 2.07.02-24 hamda ShNQ 2.08.07-22 talablarini hisobga olgan holda, loyihalashtirish topshirig‘iga asosan talablarga to`liq amal qilinsin.

6.10. Buyurtmachi “LEYLA BUILDING” MChJ tomonidan 2025-yilda tasdiqlangan loyixalash topshirig'iga muvofiq gaz ta`minoti tizimi keying bosqichda amalga oshiriladi.

6.11. Taqdim etilgan buyurtmachining boshqa harajatlarisiz va umumiy miqdori 12% QQS bilan 53 038 002 898 so'mni tashqil qilgan. Ekspertiza ko'rigidan so`ng 1 334 926 201 so'm qurilish materiallari narhlari va mashina-mexanizm harajatlari xisobidan kamaydi.

7. Xulosalar.

7.1. Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda loyiha-smeta hujjatlari bo'yicha: “Andijon viloyati Andijon shaxar, Amir Umarxon, Ma’orif, Xakimzoda va Ergash Ashurov ko‘chalari kesishmasi xududida “LEYLA BUILDING” MChJ tomonidan “Mavjud turar-joy va noturar bino-inshootlarini buzib o‘rniga 12 qavatli turar-joy” bino va inshootlari qurilishi (5-6-blok)”, obyekti taqdim etilgan quyidagi texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan tasdiqlash uchun tavsiya qilinadi:

Qurilish maydoni	- 1472,82 m^2;
Umumiy maydon	- 15996,93 m^2;
Yashash maydon	- 11197,29 m^2;
Qurilish hajmi	- 61331,03 m^3;
Shu jumladan yerto`la qavati	- 6254,17 m^3;
Me'yoriy mehnat sarfi	- 302 576,897 odam/soat
Joriy narxdagi tavsiyaviy (boshlang'ich) miqdori 12% QQS bilan (Buyurtmachining boshqa harajatlarisiz)	- 51 703 076 697 so'm.

7.2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003-yildagi 261-sonli qarori va ShNQ 4.01.16-09 me'yorlariga muvofiq tanlov savdolarini o`tkazish uchub ob'ektning qiymati buyurtmachi tomondan belgilanadi. Tasdiqlash uchun tavsiya etilgan ta'mirlash va qurilish ishlari narxi boshlang`ich xisoblanib, asosiy qarorni buyurtmachi va bosh pudrat korhonasi tomonidan shartnomaviy munosabatlar orqali amalga oshiriladi.

7.3. ShNQ 1.03.06-13da “Davlat ekspertizasiga taqdim etiladigan shaxarsozlik xujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachiga (dastlabki ma'lumotlarni loyixalashtirish jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma'lumotlarning ishonchliligi bo`yicha) va ishlab chiquvchiga (qabul qilingan loyixa qarorlari bo'yicha) yuklatiladi”.

7.4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 17-sentabr 2021-yildagi №579-sonli qarorining 5-bob, 36-bandida shaharsozlik xujjatlari bo’yicha ekspert tashkilotlar tomonidan berilgan ekspertiza xulosasining amal qilish muddati 2 yil etib belgilangan!

Bosh ekspert: Sadiqov Alisher Odiljonovich.

Ishtirokchi ekspertlar: Nazarkasimova Feruza Muxamadaliyevna, Egamov Javlon Naimjanovich, Abdurashidov Miryusup Kobulovich, Madmarov Baxtiyor Baxodirovich, Primqulov Raximjon Ibragimjonovich, Xakimov Olimjon Kamiljanovich, Soliyev Joxongir Maripjon O‘g‘li